

## **“SUV RESURSLARI: TAHLIL, YECHIM VA MAHALLIY SHAROITGA MOSLASHISH” MAVZUSIDAGI SEMINAR**

2023-yil 22-fevral kuni O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti (O‘zDJTU) majlislar zalida suv resurslari muammosiga bag‘ishlangan muhim seminar bo‘lib o‘tdi. Ushbu tadbir dolzarb suv muammosini muhokama qilish va tushunishni oshirish, shuningdek, mavjud muammolarni hal qilish yo’llarini ko‘rib



chiqish va suv resurslari bilan bog‘liq kelajakdagi xavflarni oldindan ko‘rish uchun tashkil etilgan.

Seminar suv bilan bog‘liq vaziyatni jiddiy muhokama qilish va tahlil qilish uchun zamin yaratdi. Tadbir ishtirokchilari nafaqat mavjud muammolarni,

balki ularni bartaraf etish yo‘llarini ham muhokama qildilar. Seminarda ko‘tarilgan asosiy masalalardan biri oqava suvlarni tozalash va suv orqali yuqadigan kasalliklarning oldini olish bo‘ldi. Ushbu sohadagi ilm-fan va tadqiqotlar suv resurslarida qanday ifoslantiruvchi moddalar mavjudligi va ularni samarali tarzda yo‘q qilish haqida tushuncha berdi. Shunday qilib, etarli suv ta‘minoti va kanalizatsiyani ta‘minlash uchun xavfsiz va oddiy texnologiyalar mavjud, ammo ular har doim ham keng qo’llanilmaydi.

Qayd etish joizki, bilim va yechimlar mavjudligiga qaramay, suvdan foydalanish bo‘yicha samarali amaliyotlarni joriy etish hali ham dunyoning ko‘plab mintaqalarida muammo bo‘lib qolmoqda. Bu esa mazkur muammolarni hal etishda tajriba va bilim almashish, hamkorlik qilish muhimligini ta’kidlaydi.



Seminar ishtirokchilari BRM 6 va uning suv bilan bog‘liq ko‘rsatkichlari diqqat va mahalliy sharoitga moslashishni talab qiladi degan xulosaga kelishdi. Bu shuni anglatadiki, nafaqat aniq harakatlar, balki bilimlardagi bo‘sliqlarni to‘ldirish va kelajakdagi suv xavfini aniqroq bashorat qilish uchun ko‘proq tadqiqotlar kerak.

O‘zDJTuda suv resurslariga bag‘ishlangan seminar suv resurslarini yanada samarali boshqarish, bu borada xabardor va mas’uliyatli jamoatchilikni shakllantirish yo‘lida muhim qadam bo‘ldi.